
Maxsus xabar

2019 yil 9 iyun kuni soat 02:05 da Marg'ilon shahar "Pichoqchi" MFY Xiyobon ko'chasi 174-uyda joylashgan "Marg'ilon Umumiy Ulgurji Savdo kompleksi" MChJga qarashli oziq-ovqat savdo binosida (yopiq bozor) yong'in sodir bo'lgan.

Yong'in bo'lgan joyga soat 02:10 da yetib borilgan, 05:40 da o'chirilgan. Yong'inga jami 22 ta yong'in o'chirish texnikalari (19 ta asosiy, 3 ta maxsus), 2 ta maxsus avariya-qutqaruv texnikasi jalb etilgan.

Yong'in sodir bo'lgan savdo kompleksining umumiy maydoni 10440 m² (72x145 m) bo'lib, yong'in natijasida binoning taxminan 1575 m² (35x45 m) maydonidagi oziq-ovqat, parfyumeriya mahsulotlari va xo'jalik mollari yonib zararlangan, 8825 m² maydon saqlab qolingan.

Yong'in sodir bo'lgan joy O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi Bosh boshqarmasi tomonidan o'r ganib chiqildi.

Yong'in natijasida tan jarohati olgan va vafot etganlar mavjud emas. Hozirda yong'inning kelib chiqish sabablari va yetkazilgan zarar miqdori aniqlash bo'yicha surishtiruv ishlari olib borilmogda.

Ijtimoiy tarmoqlarda yong'inning kelib chiqishi haqida asossiz gaplar tarqatmaslikni so'raymiz.

Farg'ona viloyati hokimligi

2019-06-09 13:41:39